

AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA BANK AUDITNING AMALDAGI HOLATI: MOLIVAVIY KO'RSATKICHLAR VA AUDITORLIK YONDASHUVI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Xayrullayev O'tkir Ismailovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20084616>

Annotatsiya: Tezisdagi auditning xalqaro standartlari (AXS) asosida bank auditining amaldagi holati, banklarning moliyaviy ko'rsatkichlari va auditorlik yondashuvi o'rtasidagi bog'liqlik tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: bank audit, AXS, moliyaviy ko'rsatkichlar, auditorlik yondashuvi, kredit portfeli, ECL, asosiy audit masalalari, AXS 540, AXS 701, riskka yo'naltirilgan audit.

Аннотация. В тезисе исследовано текущее состояние банковского аудита на основе международных стандартов аудита (МСА) и взаимосвязь между финансовыми показателями банков и аудиторским подходом.

Ключевые слова:

банковский аудит, МСА, финансовые показатели, аудиторский подход, кредитный портфель, ECL, ключевые вопросы аудита, МСА 540, МСА 701, риск-ориентированный аудит.

Abstract. The article examines the current state of bank audit on the basis of International Standards on Auditing (ISA) and the interrelationship between banks' financial indicators and the audit approach.

Keywords: bank audit, ISA, financial indicators, audit approach, loan portfolio, ECL, key audit matters, ISA 540, ISA 701, risk-oriented audit.

Banklarning moliyaviy ko'rsatkichlari va auditorlik yondashuvi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish bank auditining amaldagi holatini xalqaro audit standartlari nuqtai nazaridan baholashda muhim o'rin tutadi. Auditorlik strategiyasi hech qachon bankning real moliyaviy ko'lami, aktivlar tarkibi, kredit portfeli sifati, depozitlar bazasi, kapital yetarliligi va daromadlilik darajasidan ajralgan holda shakllanmaydi. Bank qanchalik yirik, kredit portfeli qanchalik katta, rezervlar va baholashlar qanchalik murakkab bo'lsa, auditorlik yondashuvi ham shunchalik chuqur, selektiv va riskka yo'naltirilgan bo'ladi. Shu bois moliyaviy ko'rsatkichlar bilan auditorlik yondashuvi o'rtasidagi bog'liqlik bank audit nazariyasining emas, balki uning amaliy samaradorligini belgilovchi markaziy masalalardan biridir.

Banklarning moliyaviy ko'rsatkichlari ular auditida qaysi uchastkalar ustuvor bo'lishini belgilaydi. Agar bank aktivlari hajmi katta bo'lsa, auditor uchun balansning hajmiy sezgirligi ortadi; agar kredit portfeli ustun bo'lsa, kredit riski va kutilayotgan zararlar rezervi markaziy audit sohasi bo'lib qoladi; agar depozitlar bazasi yuqori bo'lsa, likvidlilik va foizli majburiyatlar alohida e'tibor talab qiladi; agar kapital pastroq yoki uning yetarlilik darajasi bosim ostida bo'lsa, auditor kapital va riskka tortilgan aktivlar nisbatiga chuqurroq kiradi. O'zbekistonning yirik tijorat banklari bo'yicha ma'lumotlar ushbu bog'liqlikni juda aniq ko'rsatadi.

1-jadval

Tijorat banklarining moliyaviy ko'rsatkichlari va auditorlik yondashuvi o'rtasidagi bog'liqlik¹

Bank	Jami aktivlar, mln so'm	Kreditlar / lizing, mln so'm	Depozitlar, mln so'm	Xususiy kapital, mln so'm	KAM (asosiy audit masalasi)
Asakabank (2024)	57 013 692	40 538 562	13 661 132	6 757 889	Kreditlar bo'yicha ECL
Milliy bank (2025)	145 433 781	104 338 981	54 072 274	20 994 090	Mijozlarga kreditlar bo'yicha ECL
Xalq banki (2024)	44 578 934	28 308 422	8 596 158	7 727 941	Rezervlar va ECL
Ipak Yo'li banki (2024)	23 150 160	13 996 340	11 810 265	3 588 052	Kredit-lizing zaxirasi va baholashga sezgir moddalar

Asakabankda 2024-yilda jami aktivlarning 57 013 692 mln so'mlik hajmida mijozlarga berilgan kreditlar 40 538 562 mln so'mni tashkil etgani, ya'ni kreditlar ulushining yuqoriligi (71,1 foiz) auditorlik strategiyasida kredit portfelini, kutilayotgan kredit yo'qotishlari (ECL) va kredit zarar rezervlarini markaziy obyektga aylantirgan. Shu sababli 2020-2024 yillar davomida auditorlik hisobotlarida aynan ushbu segment asosiy audit masalasi sifatida muntazam ajratilgan. Bu yondashuv Castro tadqiqoti bilan uyg'undur: kredit risklari iqtisodiy o'sish davrida ham auditorlik nazoratining markaziy objekti bo'lib qoladi.

Ipak Yo'li bankida auditorlik yondashuvi kreditlar bilan bir qatorda depozitlar va foizli operatsiyalarni ham qamrab olgan murakkabroq tuzilishga ega. 2024-yilda bankning jami aktivlari 23 150 160 375 ming so'm, kredit va lizing operatsiyalari sof hajmi 13 996 340 405 ming so'm, talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar 7 877 286 488 ming so'm, muddatli depozitlar 3 932 978 804 ming so'm va xususiy kapitali 3 588 051 694 ming so'mni tashkil etgan. Kredit va lizing bo'yicha zararlarni qoplash zaxirasining 231 775 007 ming so'mga tengligi, foizli daromad va foizli xarajatlar o'rtasidagi nisbat, shuningdek moliyaviy instrumentlar ulushi auditorlik yondashuvini faqat kreditlar auditiga emas, balki zaxiralar, foizli daromadlar, foizli xarajatlar va moliyaviy instrumentlar auditiga ham yo'naltirgan.

Milliy bank misolida moliyaviy ko'rsatkichlar va auditorlik yondashuvi o'rtasidagi bog'liqlik eng yirik ko'lamda namoyon bo'ladi. 2025-yil 30-iyun holatiga jami aktivlar 145 433 781 mln so'mni, kredit va lizinglar 104 338 981 mln so'mni, mijozlar mablag'lari 54 072 274 mln so'mni va xususiy kapital 20 994 090 mln so'mni tashkil etgan. Bunday yirik moliyaviy ko'lam auditorlik strategiyasining murakkablashuviga olib kelgan: 2021-2023 yillarda mijozlarga berilgan kreditlar bo'yicha ECL asosiy audit masalasi sifatida ajratilgan, 2025-yil 30-iyun holatiga oraliq ko'rib chiqish hisobotida kreditlar, kredit yo'qotishlari xarajatlari va

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

haqqoniy qiymat bloklari urg'ulangan. Avazov (2020) konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni audit qilishda yagona uslubiy yondashuv zarurligini ta'kidlagan, bu fikr Milliy bank kabi yirik moliyaviy guruhlar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Xalq banki bo'yicha ma'lumotlar moliyaviy ko'rsatkichlarning auditorlik yondashuviga ta'siri faqat balans moddalari bilan emas, balki foyda sifati va reja-fakt tafovutlari orqali ham namoyon bo'lishini ko'rsatadi. 2024-yilda jami aktivlar 44 578 934 mln so'mni, kredit va lizing operatsiyalari sof hajmi 28 308 421 628 ming so'mni, kreditlar bo'yicha zararlarni qoplash zaxirasi 1 311 315 591 ming so'mni va xususiy kapital 7 727 941 mln so'mni tashkil etgan. Hisobotdan oldingi foyda 781 139 mln so'm, sof foyda esa 597 300 mln so'm bo'lgan. 2024-yilda foizli daromadlar rejaning 121 foizi, zaxiralar 155 foizi, sof foyda esa atigi 53 foizi darajasida bajarilgani, 2025-yilda esa foizli daromadlar 99 foiz, sof foizsiz daromad 146 foiz, zaxiralar 140 foiz va sof foyda 132 foizga bajarilgani qayd etilgan. Auditorlik yondashuvi bankda nafaqat kreditlar va rezervlar, balki foyda sifati, reja-fakt tafovutlari va zaxiralar yuklamasiga ham qaratilgan.

2-jadval

Tijorat banklarida kredit portfeli va kutilayotgan kredit yo'qotishlari (ECL) auditining banklar kesimidagi dinamikasi²

Bank	Yil	Brutto kreditlar, mln so'm	Sof kreditlar, mln so'm	Auditorning markaziy yondashuvi
Asakabank	2020	35 806 386	35 806 386	ECL, kreditlarning bosqichli tasnifi, defolt ehtimoli
Asakabank	2024	40 538 562	40 538 562	ECL modeli, rezervlar, individual va portfel baholash
Milliy bank	2021	72 089 675	72 089 675	Kredit portfeli va rezervlar, boshqaruv baholari
Milliy bank	2025	104 338 981	104 338 981	Oraliq ko'rib chiqish, ECL, haqqoniy qiymat
Xalq banki	2024	29 619 737	28 308 422	Kredit portfeli sifati, rezervlar bosimi, foyda ta'siri
Xalq banki	2025	33 600 492	31 861 510	Kreditlar o'sishi, rezervlar kengayishi, zaxira siyosati
Ipak Yo'li banki	2024	14 228 115	13 996 340	Brutto-sof tafovuti, standart aktivlar zaxirasi, hisobdan chiqish

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Mazkur jadval ma'lumotlari kredit portfeli va kutilayotgan kredit yo'qotishlari auditining amaliy holati banklarning moliyaviy ko'lami, kredit portfeli hajmi va rezervlar bosimi bilan bevosita bog'liq holda shakllanishini tasdiqlaydi.

Kredit portfeli va rezervlar auditining amaliy holatida rahbariyat mulohazalari alohida o'rin tutadi, chunki kutilayotgan zararlar modeli to'liq avtomatik va mutlaq obyektiv emas - unda kreditlarning qaytarilish ehtimoli, iqtisodiy ssenariylar, ta'minot qiymati va qayta moliyalashtirish imkoniyatlariga oid ko'plab boshqaruv baholari mavjud. Auditorlar banklarning kredit portfelini audit qilganda nafaqat hisob-kitob formulasini, balki shu formulaga kiritilgan farazlarning asoslanganligini ham tekshiradi. Asakabank va Milliy bankda aynan rahbariyat mulohazalari hamda ECL hisoblash metodologiyasiga alohida urg'u berilgani, Xalq bankida esa makro omillar va kredit riski bilan bog'liq rezervlar izohlangani bu xulosani mustahkamlaydi. Mamatov (2005) auditorning kasbiy hukmi audit sifatining asosiy ta'minotchisi ekanligini ta'kidlagan, bu fikr bank auditida ECL modeli farazlarini baholashda ayniqsa dolzarbdir.

Kredit portfeli va rezervlar auditining amaliy holati foyda ko'rsatkichlari bilan ham uzviy bog'liq. Ipak Yo'li bankida 2024-yilda zaxiralarni baholashdan oldingi sof daromad 1 644 313 366 ming so'm bo'lgan bo'lsa, zaxiralarni baholashdan keyingi sof daromad 1 234 625 442 ming so'mga tushgan - bu rezervlar siyosati foyda shakllanishiga qariyb 410 mlrd so'mlik salbiy ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadi. Xalq bankida 2024-yil reja-fakt ijrosida zaxiralar 155 foizga bajarilgan, sof foyda esa atigi 53 foizga bajarilgan. Bu raqamlar zaxiralar auditorlik nazoratida nega markaziy o'rin egallashini tushuntiradi. Auditor uchun rezervlar faqat balans moddasini emas, balki foyda sifati va kapitalga ta'sirni ham belgilab beradi. Guilavogui (2021) audit dalillarining yetarliligi va maqbulligi auditor xulosasi ishonchliligi uchun zaruriy shart ekanligini ko'rsatib berganida, aynan shu kompleks ko'rsatkichlararo tahlilni nazarda tutgan.

Asosiy audit masalalarini (Key Audit Matters - KAM) shakllantirish bank auditining axborot qiymatini oshirishning amaliy mexanizmiga aylangan. AXS 700 va AXS 701 talablariga muvofiq, audit fikri ijobiy va modifikatsiyasiz bo'lgan holatlarda ham auditor eng muhim risk segmentlarini foydalanuvchilar uchun alohida ochib beradi. Asakabankda kreditlar bo'yicha ECL va kredit zarar rezervlari barcha yillarda KAM sifatida ta'kidlangan, Milliy bankda 2021-2023 yillarda mijozlarga kreditlar bo'yicha ECL doimiy ajratilgan, Xalq bankida 2023-2024 yillarda kreditlar bo'yicha rezervlar va ECL masalasi auditor izohlarida alohida ko'rsatilgan. Bu mexanizm bank auditining xalqaro standartlari, ayniqsa auditorlik hisobotiga oid standartlar amalda faqat 'fikr berish' emas, balki bank foydalanuvchilari uchun eng muhim risk zonalarini axborot sifatida ochib berish vositasiga aylanganini ko'rsatadi.

Bank auditining amaldagi holatida ichki nazorat muhiti va risk boshqaruvi tizimini baholash auditorlik yondashuvining yana bir muhim qatlamini tashkil etadi. AXS 315 talablariga muvofiq auditor tashkilot va uning biznes muhitini, jumladan ichki nazorat tizimini chuqur o'rganishi kerak. Yirik tijorat banklarida ichki nazorat besh ta asosiy komponentdan iborat tizim sifatida shakllantirilgan: nazorat muhiti (corporate governance, axloq qoidalari, tashkiliy tuzilma), risklarni baholash jarayoni, axborot tizimlari va kommunikatsiya, nazorat faoliyati (avtomatlashtirilgan va qo'lda kontroller), monitoring tizimi. Asakabank, Milliy bank, Xalq banki va Ipak Yo'li banki misolida ichki nazoratning ushbu komponentlari turli darajada rivojlangan. Milliy bankda risk management, fair value, maturity analysis va capital adequacy

bo'limlarining note'larda alohida ochiqdanishi ichki nazorat tizimining axborot va monitoring komponentlarining yuqori darajada rivojlanganini ko'rsatadi. Xalq bankida 2022-yilda prudensial normativlar, ichki audit va risk boshqaruvi bo'yicha qo'shimcha tekshiruvlar mavjudligi ham bu yo'nalishdagi auditorlik e'tiborining empirik isboti hisoblanadi.

Bank auditida bog'liq tomonlar bilan operatsiyalar (AXS 550) ham auditorlik strategiyasining muhim qismidir. Yirik tijorat banklarida bog'liq tomonlar bilan operatsiyalar quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin: aksiyadorlar va ularning bog'liq tashkilotlariga beriladigan kreditlar, sho'ba va qaram tashkilotlar bilan ichki guruh operatsiyalari, rahbariyat va yuqori boshqaruv tarkibi a'zolari bilan moliyaviy munosabatlar, sug'urta va boshqa qo'shimcha xizmatlar bo'yicha bitimlar. Ipak Yo'li bankida 2024-yilda affillangan shaxslar bilan yirik sug'urta bitimlari alohida qayd etilgani bu yo'nalishning amaliy ahamiyatini ko'rsatadi. AXS 550 ga muvofiq auditor bog'liq tomonlar ro'yxatini olishi, ular bilan operatsiyalar shartlarini bozor sharoitlari bilan qiyoslashi, oshkor etilgan ma'lumotlarning to'liqligini tasdiqlashi va manfaatlar to'qnashuvi belgilarini aniqlashi shart.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Banklarning moliyaviy ko'rsatkichlari va auditorlik yondashuvi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud: bankning ko'lami, aktivlar tarkibi, kredit portfeli salmog'i, depozitlar bazasi, rezervlar hajmi va foyda sifati auditorlik strategiyasini differensial ravishda shakllantiradi. Auditorlik yondashuvi universal bo'la olmaydi, balki har bir bankning moliyaviy tuzilmasi va risk profiliga mos ravishda quriladi.

Asakabank va Milliy bankda kreditlar hajmining yirikligi auditorlik yondashuvini ECL va haqqoniy qiymat bloklariga chuqurlashtirishi, Xalq bankida foyda va rezervlar o'rtasidagi reja-fakt tafovutlari, Ipak Yo'li bankida foizli daromadlar, zaxiralar va valyuta foydasining o'zaro bog'liq holda tahlil qilinishi auditorlik amaliyotining bank moliyaviy tuzilmasiga moslashishini empirik tarzda tasdiqlaydi.

Asosiy audit masalalari (KAM) mexanizmi modifikatsiyasiz ijobiy auditorlik xulosalari berilgan holatlarda ham bank moliyaviy hisobotidagi eng muhim risk segmentlarini foydalanuvchi uchun alohida ochib berishning amaliy instrumenti sifatida muntazam qo'llanilishi shart.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Castro, V. (2012) Macroeconomic determinants of the credit risk in the banking system: The case of the GIPSI. - Braga: NIPE, Universidade do Minho, 2012. - 42 p.
2. Do'smurodov, R.D. (2008) O'zbekistonda auditorlik faoliyatining shakllanishi va uning uslubiyotini takomillashtirish: i.f.d. diss. avtoref. - Toshkent, 2008. - 36 b.
3. Eltweri, A., Faccia, A. va Foster, S. (2022) International Standards on Auditing (ISAs) Adoption: An Institutional Perspective // Administrative Sciences. - Vol. 12, no. 3. - P. 1-19.
4. Guilavogui, A. (2021) Examining the Sufficiency and Appropriateness of Audit Evidence in the United States Banking and Securities Industries: doctoral study. - Lynchburg: Liberty University, 2021. - 326 p.
5. Hamdamov, B.Q. (2007) O'zbekiston iqtisodiyotining hisob va hisobot tizimida auditorlik nazoratini rivojlantirishning uslubiy asoslari: i.f.d. diss. avtoref. - Toshkent, 2007. - 35 b.
6. Hussain, D., Hussain, E. va Bidstrup, P.N. (2021) ISA 540 (revised): Accounting Manipulation: cand.merc.aud. thesis. - 2021. - 123 p.

7. Mamatov, Z.T. (2005) Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot auditini o'tkazishni takomillashtirish masalalari: i.f.d. diss. avtoref. - Toshkent, 2005. - 42 b.
8. Markaziy bank (2024) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistik byulleten. 2024-yil, dekabr. - Toshkent, 2024. - 128 b.
9. Markaziy bank (2025) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistik byulleten. 2025-yil. - Toshkent, 2025. - 130 b.